

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI AXLOQIY JIHATDAN
TARBIYALASHNING DOLZARBLIGI VA ZARURATI

To'xtaev Hasan Toshpo'latovich,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasiga
doktoranti. Tel: 93 639 86 00.
hasan19860430@mail.ru

Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlarni milliy ma'naviy meroslar asosida axloqiy tarbiyalashda Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma'naviy merosidan foydalanish va ular orqali yosh avlodda ijobiy sifatlarni shakllantirish nazarda tutiladi. Shuningdek, muallif tomonidan qadriyat tushunchasi mazmuni, uning mohiyati borasidagi ilg'or xorijiy tadqiqotlar tahlil qilingan. Qadriyat tushunchasining o'ziga xos xususiyatlari falsafiy-psixologik tushunchalar sifatida belgilangan norma va munosabat kategoriyalardan farqi keltirib o'tilgan.

Tayanch so'z va iboralar: ma'naviy meros, manaviy tafakkur, odob-ahloq, norma, munosabat, mahalla, jamoatchilik hamkorligi, ahloqiy kamolot, halollik, iymon, vijdon, ma'naviy xislatlar.

**ТОХТАЕВ Х.Т. ЦЕННОСТЬ И НЕОБХОДИМОСТЬ
НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ
КЛАССОВ**

В данной статье предусмотрено использование духовного наследия мыслителей Средней Азии и формирование положительных качеств у молодого поколения в нравственном воспитании учащейся молодежи на основе национального духовного наследия. Также автор проанализировал передовые зарубежные исследования содержания понятия ценности и его сущности. Отличительные особенности понятия ценности отличаются от категорий норм и отношений, определяемых как философско-психологические понятия.

Основные слова и фразы: духовное наследие, духовное мышление, манеры, норма, отношение, соседство, общественное сотрудничество, нравственная зрелость, честность, вера, совесть, духовные качества.

**ТОКНТАЕВ Н.Т. THE VALUE AND NECESSITY OF MORAL
EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS**

This article envisages the use of the spiritual heritage of Central Asian thinkers and the formation of positive qualities in the young generation in the moral education of students on the basis of national spiritual heritage. Also, the author analyzed advanced foreign research on the content of the concept of value and its essence. The distinctive features of the concept of value are distinguished from the categories of norms and attitudes defined as philosophical-psychological concepts.

Basic words and phrases: spiritual heritage, spiritual thinking, manners, norm, attitude, neighborhood, community cooperation, moral maturity, honesty, faith, conscience, spiritual qualities.

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O‘zbekiston globallashuv jarayonlari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tarixiy va ma’naviy o‘zgarishlarni izchillik bilan olib borishga, halqimizning milliy-ma’naviy, diniy qadriyatlarini va o‘zligini anglashga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Shu sababli, o‘quvchi-yoshlarning rivojlanishi va ijtimoiylashuvida ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy meros, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish asosida ularni axloqiy tarbiyalashga ehtiyoj sezaladi.

Ta’kidlash joizki, mustaqillik mamlakatimiz xalqlarining milliy qadriyatlar, tarixiy an’ana va ma’naviy boyliklarini qayta tiklashga, uni yangi mazmun bilan boyitishga muhim bir sharoitlar yaratdi. Mamlakatimizdagi ta’lim-tarbiya tizimida ham zaruriy islohotlar amalga oshirilmoqdaki, bunda axloqiy tarbiya alohida o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

Mavzuning dolzarbliji. O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2021 yilning eng muhim ustuvor vazifalari haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘yan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”¹ deya e’tirof etdi.

Ayni shu maqsadlarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlari, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-son «Uzluksiz ma’naviy tarbiya

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2021 йилнинг энг муҳим устувор вазифалари хақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. - Тошкент, 2021 й., 25 январь.

konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori² (mazkur Qarorning III- bob 10-bandida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining I–XI sinflari uchun «Odobnoma», «Vatan tuyg‘usi», «Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari», «Dinlar tarixi» fanlarini birlashtirgan holda «Tarbiya» fani joriy etildi) qabul qilindi.

Demak, bugungi yoshlar ajdodlariga munosib ravishda Markaziy Osiyo hududida Uchinchi Renessans davrini yuzaga keltirishi shart. Zero, xalqimizning uzoq o‘tmishi, tengsiz madaniyati, mard-jasur bobolari, beba ho ajdodlar merosi doimo yangi kashfiyotlar, yangi marralarni zabt etishga undab turadi. Zero, «Ana shunday buyuk insoniy fazilatlar faqat tinch, barqaror, mustaqil yurtda shakllanishi mumkin. Buning uchun har bir yoshni vatanparvarlik hamda ajdodlarimizdan qolgan milliy tarixiy meroslarga hurmat ruhida tarbiyalash hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi...»³.

Butun dunyoda yoshlar ma’naviyatini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar zamirida ularni milliy ma’naviy meroslari asosida axloqiy tarbiyalashga yo‘naltirilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda milliy-ma’naviy meros, milliy an’ana va urf-odatlar, Islom dini va hadisshunos allomalarimizning hadis g‘oyalari asosida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari yetakchi o‘rinni egallaydi. IX-XII va XIV-XV asrlardagi yuksak ilmiy tarakkiyot davrida yashab ijod kilgan, buyuk zotlar qoldirgan boy milliy ma’naviy meros nafaqat Sharq olamida, balki jahon ma’naviyati va ma’rifatiga tub burilish yasadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu sababli butun dunyo yurtimizni ma’rifat ziyyosini tarqatgan muqaddas makonlardan biri sifatida o‘rganishga xarakat qilmoqda.

Bu esa yoshlarning dunyoviy, falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy hamda diniy tasavvurlari va tushunchalarini shakllantirish, jamiyatdagi voqe va hodisalarga ijtimoiy faol munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha istiqbolli ilmiy yo‘nalishlarni amalga oshirishga bevosita bog‘liq holda amalga oshmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Bugungi kunda yurtimizda yoshlarning jismonan yetuk, intellektual va axloqiy jihatdan kamolotga yetishiga, ularni milliy ma’naviy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Ўзлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1059-сон Қарори 1-иловаси. // Қонун хуҷжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.01.2020 й., 09/20/1059/4265-сон.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси марказини ташкил этиш чора тадбирлари тўғрисида. 2017 йил 1 декабр // ПҚ-3420-сон. [Электрон ресурс] <https://lex.uz>.

ustuvor yo‘nalishlarda keng qamrovli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. «...Xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya an’analalarini asrabavaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish»⁴ kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shunday nuqtayi nazardan kelib chiqib, o‘quvchilarni boshlang‘ich sinfdanoq turli xil yod g‘oyalardan uzoqlashtirish maqsadida milliy mentalitetimizga xos bo‘lgan sharqona urf odat va an’analalarimizni chuqur anglash va ularga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu bo‘yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili. Yoshlarni axloqiy va ma’naviy jihatdan tarbiyalash muammosi Vatanimiz va qator xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Tarbiyaviy ishlarning rejali va aniq maqsadli bo‘lishi hamda hamjihatlik bilan amalga oshirilishi axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Xorijlik olimlardan atoqli pedagog va adip A.S. Makarenkoning «o‘nta yuqori malakali, o‘z holicha ishlaydigan o‘qituvchidan malakasi past, bir yoqadan bosh chiqaradigan beshta o‘qituvchi afzal»⁵ degan fikrini unutmaslik kerak.

Shu boisdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish jarayonida milliy ma’naviy merosga tayanish, xalqimizning ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik, mehmondo’stlik kabi an’analari, andishalilik, insoflilik, mehr-oqibat, or-nomus kabi fazilatlarini chuqur o‘rganish va ularni o‘quvchilar qalbiga singdirish asosiy vazifa sifatida belgilab berilgan. Zero, aynan shu fazilatlar orqali, avvalo, har bir insonning o‘z qalbida, so‘ng boshqalar qalbida ajdodlar hayot va ijodiga nisbatan ehtirom tuyg‘usini shakllantirish samarali bo‘lishi ayni haqiqatdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga milliy meros, ma’naviy qadriyatlarni o‘rgatish alohida ahamiyatga ega. Natijada, o‘quvchida ularga nisbatan shaxsiy munosabat tarkib topib, asta-sekinlik bilan bolaning ma’naviy dunyoqarashi ham shakllana boshlaydi. Bugun ana shunday bir globallashuv davrida, o‘quvchilar xalqimiz o‘tmishiga hurmat mavqeidan, unga faxr hissi bilan yondashishni o‘rgansalar, keyingi hayotida yangi yutuqlarga erishadilar⁶.

⁴ Ўзбекистон Республикасининг Президентининг 2017 йил 28 июлдаги “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида”ти ПҚ-3160-сон қарори // “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 29 июль.. [Электрон ресурс] <https://lex.uz/docs/4071203>

⁵ Педагогика / А. Қ. Мунавваровнинг умумий таҳрири остида. — Т.:Ўқитувчи, 1996. – 184 б.

⁶ Адизов Б.Р. Бошлангич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари”. – Т.: «Фан», 2007. – 66 б.

Shuning uchun, boshlang‘ich sinfdanoq o‘quvchilarda milliy axloqiy sifatlarni, orzu-istiklarini, iymon-e’tiqodlarini, dunyoqarashlarini milliy ma’naviy meros asosida shakllantirib bormas ekanmiz, ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Buning uchun, shubhasiz, kelajagimiz bo‘lmish farzandlarimizning, barkamol, axloqli bo‘lib tarbiyalanishlariga erishishda faqat milliy ta’lim-tarbiya ko‘nikmalariga ega bo‘lishimiz darkor.

Vatanimiz olimlaridan buyuk bobokalonlarimiz bo‘lgan Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Abu Iso at-Termiziyy va Al-Hakim at-Termiziyy kabi muhaddis olimlarning hamda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimizning ilmiy asarlarida insonning ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy qarashlariga oid jihatlaridan yosh avlod ma’naviy tarbiyasiga tatbiq qilishning pedagogik yechimlarini asoslash, qomusiy olimlar ilmiy merosidan, ayniqsa, xulq, odob-axloqni ta’minalashga xizmat qiladigan kasbiy malaka, ijtimoiy-pedagogik bilimlarning ma’naviy-axloqiy jihatlariga ilmiy izlanishlarni keng qamrovli amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tarixida ilk Sharq Uyg‘onish davri — Musulmon Renessansi deb nom olgan o‘rta asrlar va undan keyingi zamonlarda bugungi O‘zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning jahon ilm-fani va madaniyati, muqaddas islom dini rivojiga qo‘sghan bebafo hissasi dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

O‘rta asrlarning ilk davrida ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan matematika, astronomiya, fizika, kimyo, geodeziya, farmakologiya, tibbiyat kabi aniq fanlar bilan birga, tarix, geografiya, falsafa, madaniyat va san’at, arxitektura sohalarida yaratilgan buyuk ilmiy g‘oya va kashfiyotlar jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojida keskin burilish yasadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya bevosita qadriyat, axloq tushunchalari bilan bog‘liq ekan, qadriyat tushunchasining mazmun mohiyatini aniqlashtirishga urinib ko‘ramiz. Vatanimiz olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qadriyat tushunchasining mazmunini yoritishda turlicha yondashilgan. Jumladan, faylasuf olim J.Tulenov qadriyatlarni to‘rt turga bo‘lgan bo‘lib⁷, uning muhim turlaridan biri tabiiy qadriyatlar bo‘lib, unga insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan tabiiy sharoitlar: yer va yer osti boyliklari, suv, havo, o‘rmonlar, o‘simliklar dunyosi, hayvonlar va boshqalar, ikkinchi bir turi iqtisodiy (mehnat predmetlari, ishlab chiqarish qurollari, moddiy ne’matlar;) uchinchi bir turi ijtimoiy-siyosiy (erkinlik,

⁷ Туленов Ж.. Ҳаёт фалсафаси. – Тошкент.: “Ўзбекистон”, 1993. – 145-146 б.

tenglik, adolat, tinchlik, xalqaro do'stlik), to'rtinchi bir turi ma'naviy qadriyatlar, bunga ilmiy, falsafiy badiiy, diniy g'oyalar va boshqalar kiradi.

Qadriyat tushunchasi quyidagi to'rt asosiy belgi bilan farqlanib turadi^{8, 9, 10}:

1. Qadriyat — bu hissiyotlar, tuyg'ular bilan chambarchas aloqador bo'lgan fikrlar hamda ishonch. Qadriyat faollashgan vaqtida u tuyg'ular bilan aralashib ketadi. Misol uchun, mustaqillik, erkinlik muhim qadriyati bo'lgan insonlar agar ularning mustaqilligi yoki erkinligi xavf ostida qolsa, bezovtalanishadi, uni himoya qila olishmasa, chuqur tushkunlikka tushishadi va undan foydalana olishsa, baxtli bo'lishadi.

2. Qadriyat inson tomonidan istalayotgan, ko'zlanayotgan, uning harakatlariga sabab bo'lib xizmat qilayotgan maqsadni anglatadi. Ijtimoiy tartib, adolat, mehr-shafqat muhim qadriyati bo'lgan insonlar ushbu maqsadlarga erishishga intilishadi.

3. Qadriyatlar transsendentdir, ya'ni ular muayyan harakat va vaziyatlar bilan chegaralanmaydi. Misol uchun, odob va rostgo'ylik qadriyatlari ham ta'limga, ham ishga, ham sportga, siyosatga, oilaga, do'stlar va boshqa insonlarga birday taalluqli bo'ladi. Bu xususiyat qadriyatni muayyan aniq harakat, ob'ekt yoki vaziyatlarga nisbatan taa'lluqli bo'lgan torroq tushunchalar: norma va munosatdan farqlab turadi.

4. Qadriyatlar standart sifatida xizmat qiladi. Ular tanlovni yoki harakatlar, hodisalar, insonlarga nisbatan bahoni (shu jumladan, insonning o'ziga nisbatan ham) boshqarib turadi. Qadriyatlar insonning o'z o'zini baholashida asos hisoblanadi.¹¹

Insonlar nima yaxshi yoki yomon ekanligi, nima adolatli yokiadolatsiz, nima qilish to'g'ri va maqsadga ega, nimadan qochish, uzoqroq yurish kerakligini o'zlarining qadriyatlariiga mos, muvofiqligi yoki nomuvofiqligidan kelib chiqib hal etishadi.

5. Qadriyatlar ahamiyati jihatidan tartiblanadi, ieararxiya yaratadi va nisbatan barqaror afzalliklar tizimini hosil qiladi. Bu ierarxiyaviylik qadriyatlarni norma hamda munosabatlardan farqlab turadi.

⁸ Schwartz S.H. Culture matters: National value cultures, sources and consequences // Chiu C._Y. et al. (eds). Understanding culture: Theory, research and application. N.Y.: Psychology Press. P.227

⁹ Schwartz S.H. Value orientations: Measurement, antecedents and consequences across nations// Jowell R. et al. (eds). Measuring attitudes cross_nationally: Lessons from the European Social Survey. L.: Sage, 2007. P. 161—193.

¹⁰ Schwartz S.H., Bardi A. Influences of adaptation to communist rule on value priorities in Eastern Europe // Political Psychol. 1997. V. 18. P. 385—410.

¹¹ Schwartz S.H. Cultural and individual value correlates of capitalism: A comparative analysis // Psychological Inquiry. 2007. V. 18. P. 52—57.

6. Turli xil qadriyatlarning nisbiy afzalligi inson harakatlarini boshqarib turadi. Har qanday attityudda yoki xulqda ikki yoki bir necha qadriyatlar aksi bo‘ladi. Misol uchun, insonning diniy muassasalarga tashrifi an’analarga, konformizmga va xavfsizlikka mos kelsa, ko‘p hollarda, gedonizm va stimulyatsiya kabi qadriyatlariga putur yetkazadi¹².

Maqolaning ilmiy mohiyati. Ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda ham butun dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma’naviy mulki bo‘lib, bu beba ho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhim, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilishi shubxasiz.

Tadqiqotning ob’ekti. Tadqiqotning ob’ekti sifatida Surxondaryo viloyati umumiyo‘rtta ta’lim maktabalarining 354 nafar o‘quvchisi ishtirok etdi. Jumladan 3-4-sinflarning o‘quvchilari uchun milliy ma’naviy me’roslar haqida tasovvurga ega va yuksak ongli o‘quvchilarni anikdash yuzasidan savolnoma ishlab chiqildi va faoliyatlarini amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Tadqiqot natijalari o‘rganildi va taxlil etildi. Tadqiqotning dastlabki natijalari uchun anketa-so‘rovnomalar, yakuniy testlar olinib, kayd etib borildi. Tadqiqot natijalari 2020-2021 o‘quv yillarda o‘tkazilgan dastlabki anketa-so‘rovnomada Surxondaryo viloyatining Qumqo‘rg‘on tumanidagi 16-, 69- umumta’lim maktablari o‘quvchilaridan 178 nafari, Termiz shaxridagi 12-, 13-, umumta’lim maktablari o‘quvchilaridan 176 nafari. Jami 354 o‘quvchi ishtirok etdi.

Tadqiqot usullari. Tadkikotda me’yoriy-xukukiy, o‘quv-metodik adabiyotlarni o‘rganish, pedagogik kuzatish, anketa, suxbat, test, intervyu, loyixalash, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik taxlil usullaridan foydalilanilgan.

Natijalar va amaliy misollar. Tadkikotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: o‘quvchi-yoshlarni milliy ma’naviy me’roslar asosida axloqiy tafakkuri rivojlanganligini baholashga doir diagnostik vositalar ishlab chikilgan;

o‘quvchi-yoshlarning milliy ma’naviy me’roslar asosida axloqiy tafakkurini tarbiyalashga doir tadbir ishlanmalari yaratilgan;

o‘quvchi-yoshlar milliy ma’naviy me’roslar asosida axloqiy tafakkurini tarbiyalash texnologiyalarini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chikilgan.

Nazorat va tajriba guruhlardagi o‘quvchilarning tanlanma miqdori.

¹² Schwartz S.H., Ros M. Values in the West: A theoretical and empirical challenge to the Individualism_Collectivism cultural dimension // World Psychol. 1995. V. 1. P. 99—122.

Maktablar	Nazorat sinflari	Tajriba sinflari	Umumiy
Surxondaryo viloyatining tumanidagi 16-maktab	Qumqo‘rg‘o n	42	49
Surxondaryo viloyatining tumanidagi 69-maktab	Qumqo‘rg‘o n	41	46
Termiz shahridagi 13-maktab		41	47
Termiz shahridagi 12-maktab		43	45
Jami	167	187	354

Aniq xulosa va amaliy takliflar. O‘quvchilarni milliy ma’naviy meroslarimiz orqali axloqiy tarbiyalashda quyidagi usullardan foydalanish ijobiy natijalarga erishishni ta’minlaydi:

birinchidan, tushuntirish, uqtirish, suhbat, munozara, rag‘batlantirish, jazolash usullaridan foydalanish asosida o‘quvchilarning maktabdagi umumiy va yagona tartib qoidaga rioya qilishlariga erishish;

ikkinchidan, axloqiy odatni shakllantirishda mashq va mashqlantirish hamda bolalarning turli faoliyatini uyushtirish;

uchinchidan, turli bayram tadbirlari “Mustaqillik kuni”, “Navro‘z bayrami”; adabiy kechalar “Sharq mutafakkirlari dunyo tamadunining asoschilari” mavzularidagi tadbirlarni samarali tashkil qilish;

to‘rtinchidan, Tarbiyaviy soatlar, «Tarbiya» darslari saviyasini oshirishda interfaol metodlardan samarali foydalanish;

beshinchidan, ommaviy axborot vositalari, kinoteatr, televidenie ko‘rsatuvalaridan, jumladan, «Otalar so‘zi aqlning ko‘zi», kabi eshittirishlardan, shuningdek, zamonaviy targ‘ibot vositalari, ya’ni ijtimoiy tarmoqlar ta’siridan unumli foydalanish;

oltinchidan, o‘z mehnati, fidoiyligi, vatanparvarligi, halolligi bilan el-u xalqqa namuna bo‘lib kelgan mehnat faxriylari, ilm-fan xodimlari va urush faxriylari, ko‘p bolali onalar, imonli qariyalar, hojilar bilan o‘quvchilar uchrashuvlarini uyushtirib borish;

yettinchidan, dars jarayonida sinfdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda Sharq qadriyatlari va milliy an'analar aks etgan ma'rifiy ruhdagi asarlar, jumladan islom dinining muqaddas, bosh asosi Qur’oni Karim, muhaddis alomalar asarlari, bobokalonlarimiz Kaykovusning «Qobusnoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Nosir Xisravning «Saodatnoma», Ibn Sinoning «Donishnoma», Sa’diyning «Guliston», «Bo‘ston», Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Boburning «Boburnoma»,

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish asosida ularda bir qator sifatlar namoyon bo‘ladi. Ular: o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘ziga doimo tanqidiy qarash, kamchiliklarni o‘zidan qidirish, o‘z-o‘ziga talabchan bo‘lish, hamma joyda aniq ishlarni vijdonan bajarish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, bunda kuchli va kuchsiz tomonlarni aniqlash, axloqiy tarbiyalanganligini, bilimlarni yaxshi egallaganligi, axloqiy tuyg‘ularning rivojlanganligi, maqsadga intilish, dovyuraklik va hal qiluvchanlik, mustaqil fikrga ega bo‘lish, talabchanlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, o‘z-o‘zini idora qilish va tuta bilish tashkil etadi.

Pedagogik faoliyatda hoh u boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lsin, hoh u yuqori sinf o‘qituvchisi bo‘lsin dars mashg‘ulotlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunini xalqimizning necha ming yillik tarixida ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan milliy-ma’naviy meroslar, an’ana va urf-odatlari, Islom dini va hadisshunos allomalarimizning ta’limiy-tarbiyaviy g‘oyalari bilan boyitish maqsadga muvofiqlik. Chunki, bu usullar axloqiy tarbiya negizini tashkil etib, o‘quvchilarning ma’naviy axloqiy tarbiyalashni takomillashtirishda xizmat qiladi.

Bu xulosaning asosi sifatida shu mulohazani keltirib o‘tishni o‘rinli deb bilamizki, biz yuqorida tahlil qilgan, tilga olgan ilg‘or, iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakat tadqiqotchilari ham qadriyat, axloq fenomenlari mohiyati, ularni shakllantirish muammolari haqida olib borgan ilmiy tadqiqotlarida, qadriyatlar transdentligi, ya’ni ularni dunyoviy (immenent) hodisalar bilan ham, inson ongi, shuuriga, mohiyatiga xos hisoblanuvchi ilohiylik (diniy, afsonaviy, ishonchga asoslanuvchi), ya’nikim transsendentlik xususiyatlariga ega deb hisoblashadi. Bu holat bizga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz, bugungi avlod e’tiqodi, ishonchiga, hayot ma’nosiga asos bo‘lib kelayotgan Islom dini manbalaridan, o‘z hayoti, ilmi, asarlari, tajribasi bilan el-u xalqqa namuna bo‘lib kelayotgan keksalar, mehnat faxriylari, din vakillari, serfarzand, serdavlat ota-onalar o‘gitlari, namunasidan unumli, o‘rinli foydalanish lozimligi haqidagi xulosamizni to‘g‘ri yo‘nalishda deb hisoblashimizga imkon beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2021 yilning eng muxim ustuvor vazifalari xakidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - Toshkent, 2021 y., 25 yanvar. [Elektron resurs] <https://lex.uz/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sun Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-sun.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida. 2017 yil 1 dekabr // PQ-3420-son. [Elektron resurs] <https://lex.uz>
4. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining Qarori. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”. 2017 yil 28 iyul // Xalq so‘zi, 2017 yil 29 iyul. PQ-3160-son. [Elektron resurs] <https://lex.uz/docx/4071203>
5. Pedagogika / A. Q. Munavvarovning umumiyligi tahriri ostida. —
T.:O‘qituvchi, 1996. – 280 b.
6. Adizov B.R. “Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari”, – Toshkent: «Fan», 2007. – 120 b.
7. Tulenov J. Hayot falsafasi: T.: O‘zbekiston, 1993. – 340 b.
8. Schwartz S.H. Culture matters: National value cultures, sources and consequences // Chiu C._Y. et al. (eds). Understanding culture: Theory, research and application. N.Y.: Psychology Press. – p.221-229
9. Schwartz S.H. Value orientations: Measurement, antecedents and consequences across nations// Jowell R. et al. (eds). Measuring attitudes cross_nationally: Lessons from the European Social Survey. L.: Sage, 2007. P. 161—193.
10. Schwartz S.H., Bardi A. Influences of adaptation to communist rule on value priorities in Eastern Europe // Political Psychol. 1997. V. 18. P. 385—410
11. Schwartz S.H. Cultural and individual value correlates of capitalism: A comparative analysis // Psychological Inquiry. 2007. V. 18. P. 52—57.
12. Schwartz S.H., Ros M. Values in the West: A theoretical and empirical challenge to the Individualism_Collectivism cultural dimension // World Psychol. 1995. V. 1. P. 99—122.